

## O’LMAS UMARBEKOVNING “ODAM BO’LISH QIYIN” ASARINING TAHLILI

*Olimboyeva Nilufar  
Urganch Ranch texnologiya universitet talabasi*

**Annontatsiya.** O’lmas Umarbekov-o’zining psixologik va ijtimoiy masalalarini yoritishda mahoratini namoyan etgan,o’ziga xos tarzda ijtimoiy va ruhiy masalalarni yoritadgan yozuvchi sifatida tanilgan. Uning „Odam bo’lish qiyin” asari, o’zida insonning ichki kechinmalarini, murakkab his-tuyg’ularini va o’zini anglash yo’lidagi iztiroblarini aks ettiradi. Asarda hayoda „Odam bo’lish”ni yaxshilik va yomonlikni ajratish qiyinligini ko’rsatish orqali, yozuvchi o’quvchini chinakam insoniylik ma’naviy qadriyatlar va jamiyatdagi rolni qayta o’ylashga undaydi.

**Kalit so’zlar.** Psixologik muammolar, ichki iztiroblar, ichki kurash, jamiyatda o’z o’rnini topish.

Asarda bir necha qahramonlarning hayoti, ularning ichki iztiroblari va yashash yo’lidagi murakkab qarorlar tasvirlangan.O’lmas Umarbekov bir tomonidan o’zini topishga intilayotgan shaxslarning ijtimoiy sharoitlarida qanday hayot kechirayotganini , boshqa tomonidan esa,odamning o’zini anglash yo’lidagi kurashini tasvirlaydi.Asarning asosiy g’oyasi shundaki „odam bo’lish” faqat tashqi ko’rinishni anglamaydi, balki har bir insonning ichki dunyosini ,axloqiy qarorlari,his-tuyg’ulari va jamiyatdagi o’rni bilan ham bog’liqdir.

Yozuvchi asar davomida insonning haqiqiy „odam bo’lish” yo’li uzundan uzoq, sinovlar bilan to’la ekanligini ko’rsatadi.Inson faqat o’zini angalab axloqiy ma’naviy jihatdan poklanish orqali haqiqiy odam bo’lishi mumkin.

Hikoyaning asosiy qahramonlari ko’pincha o’zlarini jamiyatda o’z o’rnini topolmaydigan yoki hatto o’z kechinmalariga ham to’g’ri javob bera olmaydigan shaxslar sifatida ko’rsatilgan.Ular turli ijtimoiy va oilaviy sharoitlar hatto mashaqqatli hayotiy qarorlar bilan duch kelishadi.Biz qahramon odatda o’zgarishlarini qabul qilmayotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Unga qarshi jamiyatdagi nohaqliklar, o’zgarishga bo’lgan qo’rquv va ichki iztiroblar kuchli ta’sir qiladi. Bunday holatlar aslida , yozuvchining „ odam bo’lish” konsesiyasini o’rganishdagi asosiy vositadir.

Insonning ichki kurashishi va o’zligini anglash odam bo’lish qiyin asarining markaziy masalalaridan biri insonning ichki kurashidir.Har bir qahramon, o’zining ichki dunyosidagi boshqarib bo’lmaydigan ,muakkab his tuyg’ulari bilan kurashadi. Ular o’zlarining haqiqiy kimligini topishga ,axloqiy qarorlar qabul qilishga intiladilar. Bu kurash odatda qahramonalr o’z hayotida ijtimoiy ,ma’naviy yoki psixologik muamolarini hal qilishda yuzaga keladi. Yozuvchi, har bir shaxsning o’z o’zini anglash

jarayonini , ijtmoiy sharoitlar va axloqiy tanlovlar bilan bog’lab , o’zini anglashning o’zi ham o’ziga xos bir kurash ekanligini ko’rsatadi. Ikki jmiyatning odamga tasiri va odamning jamiyatdagi o’rni asarada jamiyatning individual shaxsga bo’lgan ta’siri va uning hayotidagi o’rni ham yoritiladi. Umarbekov, jamiyatning ijtimoiy qoidalari, an’analari va meyorlari bilan insonning o’zligini anglashdagi qiyinchiliklarni tasvirlaydi. Qahramonlar, odatda jamiyatning ko’rsatmalariga qarashi chiqishga qodir emas. Ularning ruhiy iztiroblari ,o’zining kimligini topishga qaratilgan harakatlari,jamiyatning o’zgaruvchan talablari va qoidalari bilan to’qnashadi. Asar davomida yozuvchi, insonning ijtimoiy sharoitlariga qanday moslashishni va bu sharoitalar Ichida o’zini qanday anhlashini tahlil qiladi. Asar daomida qahramonlar turli axloqiy dilemmalar bilan yuzlashdi. Ular yaxshilik va yomonlikni ajaratish, to’g’ri qarorlar qabul qilish yo’lida qiyinchiliklarga duch keladilar. O’lmas Umarbekov bu dilemmalrni yoritishda insonning ichki o’zgarishlarini axloqiy muammolarni yanada chuqurtshtiradi. Yozuvchi, axloqiy qarorlar insonning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qilishi ularning jamiyatdagi o’rinlarini qanday shakllantirishi kerakligini ko’rsatadi. Asarda insonning hayotdagi maqsadi uning o’zini anglash yo’li va haqiqiy odam bo’lish masalasi o’rganiladi.Qahrmonlar o’zlarini bir necha bor qayta topishga harakat qiladilar.Bu jarayonlar davomida ular turli sinovlardan o’tadilar. Yozuvchi, „odam bo’lish” ning murkkab jarayonnini shunday tasvirlaydiki , bu faqat tashqi yuksaklik mas,balki ichki yaxshilik, xohish , niyat va axloqiy to’g’rilik bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi.

O’lmas Umarbekovning „Odam bo’lish qiyin” asari ,insonning ruhiy, ma;naviy va ijtimoiy kurashlarini chuqur tahlil qilgan, zamonaviy adabiyotda o’zining o’rni va ahamiyatini ko’ratgan asarlardan biridir. Asarda tasvirlangan qahramonlarning o’zini anglash jamiyat bilan o’zaro aloqalari, va axloqiy o’quvchini o’ziga xos bir ichki safarga olib chiqadi. Umarbekov asariada „ Odam bilish” konsepsiysi ,faqat tashqi ko’rinishni anglatmasdan ,insonning ichki dunyosidagi,o’zgarishlar, axloqiy tanlovlar va hayotdagi qarorlar bilan bog’langanligi ko’rsatiladi. Bu asar o’quvchiga insoniy qadriyatlarni, ichki erkinlik va hayotdagi haqiqiy maqsadni topishga chaqiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.O’lmas Umarbekov. „Odam bo’lish qiyin”.-T. „Turon zamin”
- 2.<https://fayllar.org>
- 3.[www.o'zbekadabiyot.com](http://www.o'zbekadabiyot.com)